


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LIFE AND DEATH: ETERNAL DIALECTICS****Zilola Haydarova***Teacher, Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** life, death, artistic time, retrospective subject, inner experience, author's intention, catharsis, radio drama, dramatization, composition time.**Abstract:** The article analyzes the theme of the story "On One of the Wonderful Days" by Hayriddin Sultan, the inner experiences of the characters, the endless turmoil of their psyche from the point of view of the dialectics of life and death.**Received:** 01.01.26**Accepted:** 02.01.26**Published:** 03.01.26**HAYOT VA O'LIM: ABADIY DIALEKTIKA****Zilola Haydarova***Jizzax davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi
Jizzax, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** hayot, o'lim, badiiy vaqt, retrospektiv sujet, ichki kechinma, muallif niyati, katarsis, radiodrama, dramatizatsiya, kompozitsiya vaqti.**Annotatsiya:** Maqolada Xayriddin Sultonning "Ajoyib kunlarning birida" qissasi mavzusi, qahramonlar ichki kechinmalari, ruhiyati cheksiz g'alayonlari hayot va o'lim dialektikasi nuqtayi nazaridan tahlil etilgan.**ЖИЗНЬ И СМЕРТЬ: ВЕЧНАЯ ДИАЛЕКТИКА****Зилола Хайдарова***Преподаватель
Джизакский государственный педагогический университет
Джизак, Узбекистан***О СТАТЬЕ****Ключевые слова:** жизнь, смерть, художественное время, ретроспективный сюжет, внутренний опыт, авторский замысел, катарсис, радиодрама, драматизация, композиционное время.**Аннотация:** В статье анализируется тема рассказа «В один из чудесных дней» Хайридина Султана, внутренние переживания персонажей, бесконечные душевные терзания с точки зрения диалектики жизни и смерти.

Xayriddin Sulton – jahon va o‘zbek adabiyoti bilimdoni. Ayniqsa, jahon adabiyoti vakili Shukshin ijodi bilan yaxshi tanish. Adib bilan bo‘lgan suhbatda Vasiliy Shukshin ijodiga o‘xshashlik, ta’sirlanish haqida savol berilganda shunday javob bergan edi: “Darhaqiqat, o‘tgan asrning 80-yillarida Vasiliy Shukshin ijodi sobiq ittifoq hududa benihoya mashhur edi. Ayniqsa, viloyatlardan yetishib chiqqan aksariyat adiblar Shukshinning “qishloq prozasi”dan ibrat olishga intilar edilar. Bu ulug‘ yozuvchi rus qishlog‘ining bor dard-u hasrati, quvonch va qayg‘ularini, betakror xarakterlarni zo‘r mahorat bilan tasvirlay olgan edi”. [5;86]

“Katarsis – estetikaga oid istilohlardan biri bo‘lib, asar qahramonining fojiasi yoki quvonchi, turli holatlari, xatti-harakatlari natijasida tomoshabin, kitobxon yoki tinglovchida yuz beradigan quvonch, hayajon, qo‘rquv, achinish va qayg‘urish kabi hissiy-ruhiy hodisalar ushbu atama bilan yuritiladi”. [3;94]. Aynan katarsis atamasi ruhiy tozalanish sifatida boshqa janrlarda ham namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, 70-80-yillar qissachiligida qahramonlar ruhiyatidagi evrilishlar, o‘z o‘zi bilan ichki suhbatlar kitobxonlarni ham mushohadaga chorlamay qo‘ymaydi.

Qissa epigrafida muallif uni O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag‘ishlaganligi ta’kidlab o‘tadi. Asar badiiyati ham qaysidir ma’noda san’atkor Botir Zokirov hayoti, faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Sulton, Kamol, Abdulla tashrif buyurgan restoranda sahnada bir yigit asardagi san’atkor obrazi Nozim Qodirovning qo‘shig‘i kuylanadi:

Qaydasan, sevgilim, qora ko‘zligim,

Sevgili yulduzim, shirin so‘zligim...[6; 47]

Butun zal qo‘shiqqa sehrlanib qolgandek edi go‘yo. Shu qatori Sulton ham Nozim Qodirovning ashaddiy muxlisi, qo‘shiqlarining oshig‘i edi.

Nozim Qodirov obrazi badiiy to‘qima bo‘lib, Botir Zokirov prototip qilib olingan. Botir Zokirov o‘zbek san’atining eng yetuk vakili, o‘z davrining bulbuli edi. San’atkor hayot va ijodi bilan tanishar ekanmiz, 70-80-yillarda uning qo‘shiqlariga oshiq bo‘lmagan “Arab tangosi”, “Ra’no”, “Umid”ni tinglamagan insonlarni topish mushkul.

Sulton ilk marta Nozim Qodirovni Ukrainada, Cherkassida ko‘rgan edi. O‘sha eski xotiralar, o‘tmish voqealari bir-bir ko‘z o‘ngida qayta jonlandi. Vatanparvarlik tuyg‘usi qalbida jo‘sh uradi, ilk marta o‘zbek ekanligidan, o‘zbekning mana shunday san’atkori borligidan faxrlanadi. Nozim Qodirov faqatgina o‘zbek tilida emas, balki turli tillarda qo‘shiqlarni mahorat bilan kuylaydi. Kuylari, navosi yurakka, eng to‘riga yetib boradi, sehrlab qo‘yadi:

“Odam qaragan sari qaragisi keladi: yosh, kelishgan, uch soat to‘xtovsiz aytdi – qani tovushi qilt etsa! Go‘yo ashula aytmayapti-yu shunchaki siz bilan dardlashib o‘tirgandek, og‘zi ochganini sezmaydiz. O‘zbekcha aytdi, turkmancha, hindcha-yu fransuzcha... “Arab tango”sini boshlaganida, o‘!.. eh, ajoyib kunlar ekan-da! – Sulton, olis o‘tmish xotirasining yodi bilan hayajonlanib ketganini sezmay o‘tirardi”. [6;48]

Botir Zokirov ovozi bilan qalb tubini larzaga solgan. Ta'sirchan, sermazmun, shirali ovozi hammani birdek maftun qilgan. U o'zbek estrada san'atining asoschisi edi. Xayriddin Sulton qissaga aynan Botir Zokirovni prototip qilib olgani ham bejiz emas. Adib "Ajoyib kunlarning birida" qissasi yozilish jarayonida vafot etgan edi.

Qolaversa, adibning "Yo'qchilik va to'qchilik" (Ma'naviyat nashriyoti, 2000-yil) kitobida tarjima asari "Kichkina shahzoda" (Antuan de-Sent Ekzyuperiniki) ham berilgan. Botir Zokirov esa asar tarjimasidan ancha oldin radiopostanovka (Radiodrama (audiodrama, radiospektakl) - badiiy radioeshittirish, spektaklni yozib olish yoki adabiy asarni dramatisatsiya qilishning radioeshittirish shakli. Radio uchun ham bir qancha original asarlar yaratilgan) tayyorlagan edi. Demak, bu ikki ijodkorni birlashtirib turgan jihatlar ham bir qancha.

Nozim Qodirov siymosi asarda samimiy, dilkash, ochiqko'ngil inson sifatida gavdalanadi. Hattoki unchalik yaxshi tanimasa ham, Sulton, Kamol, Abdullani (kech bo'lishiga qaramay) uyiga taklif etadi, mehmondorchilik qiladi, uzoq suhbat quradi. Sulton bu suhbatdan juda ham ta'sirlanadi. Navoiydan, Fuzuliydan, Mashrabdan kuylamaganiga afsuslangan Nozim Qodirov baytlarning mag'zini chaqishga harakat qilmoqda edi. Ularning baytlari, so'zlari qanchalik toza, ma'noli, sof, mardona! Afsuski, Nozim Qodirov bularni kech anglaganini tushunib yetadi. Navoiyning "El netib topgay menikim, men o'zimni topmasam..." misralarini tahlil qilar ekan, inson o'zini, o'zligini qidirishi, topishi kerakligini aytadi.

Bog' mendek sarg'arib, bulbul meningdek bo'ldi lol,

Go'yo mundoq bo'lur bir guldin ayrilg'ong'a hol.

Yerdagi yafrog' g'arib-u xokisor ar bo'lmasa,

Men kibi ne vajhdindur yuzi sorig', ashki ol.

Sultonning xayolidan beixtiyor azamat asriy chinorlar bo'y cho'zgan kenglik gavdalandi, quyosh nurining horg'in nurlari muloyim jilva qila boshladi, daraxt shoxlarida qushlar charx ura boshladi, oyoq ostida zilol suv, suv yuzida esa qontalash, alvon yaproqlar suzib yurardi. Xazonli bog' ichida bir yolg'iz inson kezadi. Muddaosi ne uning? Nimani bunchalik qidiradi? Nelarni o'ylaydi? Nigohlari bunchalik dardli va o'ychan?..

Sulton umrining yarmi kasalxonada o'tgan, dard bilan kurashib charchagan bu inson oldidan chiqar ekan, orzu qilishdan, maqsadlarning uchun harakat qilmagan, umidingni uzgan kundan boshlab yashashdan ham to'xtaysan degan xulosaga keladi.

"O'lim mavzusi adabiyot va san'atning abadiy mavzularidan biri hisoblanadi. To'g'risi, o'lim – dahshatli hodisa. Qachon, qay holda kelishi noma'lum bo'lgan, sirlarichiga yashiringan o'lim sharbatini har bir inson totadi, albatta. Har qanday tirik jon bir kunmas-bir kun o'lim bilan yuzma-yuz keladi. Ojiz fikrimizcha, inson shu muqarrar voqelikka munosib tayyorgarlik ko'rishi, o'zining hech kimligini chuqur idrok etishi lozim". [2;50]

Darhaqiqat, badiiy asarlar hayot va o'lim qadrini anglashda ruhiy tarbiyachi bo'lishi lozim. Hayot va o'lim masalasini qay darajada yoritishiga qarab ijodkorning badiiy taxayyuli haqida xulosa qilish mumkin. O'tgan asrda yaratilgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Cho'lponning "Kecha va Kunduz", Oybekning "Qutlug' qon" romanlarida ilk marotaba hayot va o'lim tasviri kulminatsion nuqtalarda beriladi.

"Ajoyib kunlarning birida" qissasida ham hayot va o'lim mavzusi yonma-yon tarzda akslanadi. Yozuvchi bir necha o'rinlarda o'lim haq ekanligiga, insonning chin borar manziliga ishora qiladi. Kitobxonni ham shunga hozirlaydi. O'lim – bu haqiqiy hayotning boshlanishi. Bu yo'qlik emas aslida. Sulton xotiralari bilan birga qolganda, eski qadrdonlari, yaqinlarini yo'qlaganda ularning ko'pchiligi vafot etganini eshitadi. O'lim oldida barcha birdek ekanligini yana bir bor anglaydi. Lekin Nozim Qodirov vafoti uni chuqur qayg'uga soladi: "Sulton karavotdan sapchib turdi, yerga tushib ketgan gazetani jonholatda olib tikildi: "...xalq artisti Nozim Qodirovning bevaqt vafot etgani munosabati bilan..." U oyoq-qo'lidan mador ketgancha serrayib turar, vujudini sovuq titroq chulg'ab, qulog'i shang'illab boshlagan edi. Yopiray! Bu qanday gap axir!? Nahot rost bo'lsa?! Axir kechagina... Yopiray!.. Nozim aka, Nozim aka!.." [6;70]

Yozuvchi bir necha bor o'lim detalidan foydalanadi. Bosh qahramon ichki kechinmalari, o'y-xayollari tasvirida o'lim va hayotni ko'p o'rinlarda zidlab ko'rsatadi. Hattoki qulog'i ostida bot-bot: "Sen uzoq yashaysan, hammadan ziyod, hali toychoqlaring o'ynab yuribdi, meni-chi, shum ajal naq ostonada egarlangan otday kutib turibdi", - misralari jaranglayverdi. Shoir xuddiki Sulton uchun she'r o'qir edi.

Kasalxona hovlisida yurar ekan ana shularni mulohaza qilgan Sulton xayolan Nozim Qodirov bilan suhbatlashadi. Go'yoki tez orada o'zi ham vafot etishini o'ylaydi: "Hayot qanchalar shirin! Uni tashlab ketishga odamning qandoq ko'zi qiyarkin? Siz qanday tashlab ketdingiz uni, Nozim aka?! Eh, hali sizga aytadigan gaplarim ko'p edi, sizdan eshitmoqchi bo'lgan gaplarim ham hali ko'p edi!.. eh, hayot, bevafo hayot, iztirobing ham shunchalar lazzeatliki, seni qanday tashlab ketib bo'ladi?! Siz qanday tashlab ketdingiz uni, Nozim aka? O'zing-chi, o'zing, endi qanday tashlab ketasan uni?!" [6;73]

"Hayot – hamisha ko'pqirrali. Bir xil muhitda har kim nisbatan har xil yashashi, biri ikkinchisiga o'xshamas tajriba, his-tuyg'u orttirib borishi tabiiy. Yozuvchi yaratadigan tasvirlarda yuqoridagi omillar bilan birgalikda ana shu – xususiy hayot tajribalari, dunyoqarash, voqeelikka munosabat, simpatiya-antipatiya, ideal, etik-estetik konsepsiyalarning ham muhri bo'ladi". [1;149] Xayriddin Sulton ijodida ham qahramonlar o'z o'zlarini tahlil qilishlari, ruhiyat g'alayonlari, ichki kurash yetakchi rol o'ynaydi. Voqealar rivoji ham yozuvchining shaxsiy uslubidan kelib chiqib har bir asarida o'ziga xos.

“Ajoyib kunlarning birida” qissasi sujet tizimi ham izchil emas. Yozuvchi “badiiy vaqt” imkoniyatidan foydalangan. Bunda “sujet vaqti” bilan “kompozitsiya vaqti” bir-biriga muvofiq kelmaydi. Ya’ni asar hikoya qilinayotgan vaqtda voqealar boshqa vaqtda yuz bergan bo’lishi mumkin.

Muallif qahramon hayotini aniqroq kitobxonga tanishtirish maqsadida retrospektiv sujet qurilishidan foydalanadi. Bunday sujetda qahramon ba’zan butun hayot yo’lini tahlil qilishi asosiga asar qurilishi mumkin. Dilmurod Quronov Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissasi, “Asrni qaritgan kun” romanlarida retrospektiv sujet imkoniyatlaridan keng foydalanganligini ta’kidlaydi. “Ajoyib kunlarning birida” qissasida ham muallif bosh qahramonning hayot yo’lini “badiiy vaqt” imkoniyatlari asosida tahlil qiladi. Sultonning hayot yo’li (garchand izchil tarzda berilmasa ham) xotiralar asosiga qurilganligi va bir-biri bilan uzviy bog’langanligi bilan ahamiyatlidir. Bu yozuvchining g’oyaviy-badiiy niyati, estetik maqsadini yanada aniqroq namoyon qilgan: “Umuman olganda, sujet qurilishida voqealarning haqiqatda yuz berish tartibining o’zgartirilishi o’quvchi diqqat-e’tiborini voqeadan uning zamiridagi mohiyatga ko’chirishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois ham adiblar badiiy vaqt bilan bog’liq ijodiy tajribalarga tez-tez qo’l urishadi”. [4;190]

“Inson hayoti va faoliyatiga tegishli go’zalliklar uncha murakkabmasdek tuyuladi. Aslida bu – inson hayoti go’zalliklarini to’g’ri va obyektiv aks ettirish biz o’ylaganimizga nisbatan ham ancha murakkabdir. Buning sababi shundaki, avvalo go’zallikni aks ettiradigan san’atkorning o’zi ma’lum bir jamiyat a’zosi, tabiat, jamiyatda har xil dunyoqarash va kayfiyatdagi guruhlariga tegishli bo’lishi mumkin”. [1;161]

Xayriddin Sultonning “Ajoyib kunlarning birida” qissasida tasvir etilgan voqealar, inson kechinmalari hayotni sevishga, umrni qadrlashga, undan mazmunli foydalanishga undaydi. Hayot va o’lim yonma-yon. Uni qachon kelishini hech kim bilmaydi. Hayotni esa boricha qadrlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. Adabiy-tarixiy jarayon. Ikki tomlik. II tom. – T.: “Fan” nashriyoti. 1979. 448 bet.
2. Karim, Bahodir. Ruhيات alifbosi. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. 364 bet.
3. F.Salayev, G.Qurbonniyozov. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so’zligi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. 331 b
4. Quronov, Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. 460 b.
5. Sulton, Xayriddin. Haqiqat jamoli. Adabiy va publitsistik maqolalar. – T.: “MASHHUR PRESS” nashriyoti. 2019. 496 bet.

6. Sultonov X. Onamning yurti: Qissa va hikoyalar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. 256 b.